

JON APDAYK NASRIY ASARLARI MIFOPOETIKASI

Nurmamatova Mohlaroy Rasuljon qizi

University of business and science

Annotatsiya: Ushbu maqolada amerika yozuvchisi Jon Apdaykning tarjimai holi, yozgan nasriy asarlarining mifopoetikasi bilan birgalikda Brazilya asarining keng talqini yozilgan.

Kalit soʻzlar: mif, roman, trilogiya, Brazilya romani, mifologik asar, realizm, mifologik qatlam.

Abstract: This article contains a biography of the American writer John Updike, along with the mythopoetics of his prose works, a broad interpretation of the work of Brazil.

Key words: myth, novel, trilogy, Brazilian novel, mythological work, realism, mythological layer.

Jon Xoyer Apdayk (inglizcha Jon Hoyer Updike; 1932 yil 18 mart, Reading, Pensilvaniya, AQSH - 2009 yil 27 yanvar, Danvers, Massachusetts) — amerikalik yozuvchi, shoir va adabiyotshunos, 23 ta roman va 45 ta boshqa kitoblar: hikoyalar toʻplamlari, sheʼrlar muallifi.

1932-yil 18-martda Reading shahrida tugʻilgan, 13 yoshigacha Pensilvaniya shtatining Shillington shahrida yashagan. Ota - Uesli Russell Updayk - maktab oʻqituvchisi, onasi - Linda Greys - hikoyalar yozgan.

Mif (yunoncha. mithos — afsona, rivoyat, asotir) — qadimgi odamning borliq olam haqidagi ibtidoiy tasavvurlari majmui boʻlib, koinotning yaratilishi, inson, oʻsimliklar va hayvonot dunyosining vujudga kelishi, samoviy jismlarning paydo boʻlishi, tabiiy hodisalarning sabablari va mohiyati, afsonaviy qahramonlar, maʼbudlar va ilohlar toʻgʻrisidagi eʼtiqodiy qarashlarni oʻz ichiga olgan. Mif qadimgi odamning voqealikka boʻlgan ongsiz hissiy munosabati ifodasi boʻlib, tabiat va jamiyat hayotining turli qirralari mohiyatini tushuntiruvchi eng qadimgi tasavvurlar silsilasidir.

Amerikalik yozuvchi Jon Apdayk asarlarida moʻjizaviy realizm elementlarini koʻrishimiz mumkin. XX asr Amerika adabiyotining serqirra ijodkori Jon Apdayk (John Hoyer Updike, 1932 - 2009) hayoti davomida turli janrlarda asarlar yaratdi. Xususan, uning quyvon haqidagi romanlari (Rabbit novels), Bek haqidagi trilogiyasi (Beck Books), Istvik turkumiga (Eastwick Books) kiruvchi romanlari bir necha marta Pulitser mukofotiga sazovor boʻlgan. Jon Apdayk romanlari moʻjizaviy realizm elementlarini oʻzida turlicha namoyon etgan. Adibning "Braziliya" (Brazil, 1994) nomli asari moʻjizaviy realizm yoʻnalishiga xos boʻlgan roman sifatida mashhur boʻldi.

Adabiyotshunos J. Prosser roman "milliy va irq miqlariga asoslangan muhabbat haqidagi ertak" (Prosser J., World Literature (2024) 79 2006, 84) ekanligini taʼkidlaydi. Asar qora tanli kambagʻal yigit Tristiano (Tristiano) va nufuzli siyosatchining sariq sochli goʻzal qiz Izabelning muhabbati tarixi haqida hikoya qiladi. Romanning hikoya qilish uslubi mifologik va realistik tarzda ifoda etilgan. Tristan va Izolda haqidagi afsonaga asoslangan asarda yozuvchi kelt mifi voqealarini hozirgi kun Braziliyaning ekzotik tabiatiga koʻchiradi va zamonaviylashtiradi.

O'rta asr afsonasining zamonaviy tarzda hikoya qilinishi muallifning o'ziga xos uslubining mavjudligini ko'rsatdi. Asar quyidagi fikr bilan boshlanadi: "BLACK is a shade of brown. So is white, if you look" (Updike J., 1996, 1). Shartli ravishdagi ikki rang ya'ni oq va qora ziddiyatni – romanning ijtimoiymadaniy fonini ifodalaydi. Ikki irq, boylar va kambag'allar o'rtasidagi farq, Braziliyaning yovvoyi tabiati va sanoatlashgan manzarasi kabilar muallif e'tiborida ziddiyatni anglatadi. Shu tariqa, Jon Apdayk ijtimoiy va irqiy mansublikdan kelib chiqqan holda insonlar o'rtasidagi tengsizlikni tasvirlaydi.

Romanning chuqur mifologik qatlamli Tristiano va Izabel obrazlari, ularning boshdan kechirgan voqealari va hayotiy sinovlari bilan bog'liq. Izabelning oilasi kabi jamiyat ham qora tanli yigit va oq tanli qiz o'rtasidagi nikohni tan olmaganligi bois qahramonlar doimiy kurash fonida tasvirlanadi. Ularning muhabbati fojealidir, biroq sof va abadiydir. "Taqdir va ruhlarga" ishongan Tristiano ilk uchrashuvdayoq Izabelga DAR yozuvli uzuk sovg'a qiladi. Tristianoning bunday tuhfasini yori bilan umrbod birga baxtli hayot kechirish ma'nosini ifodalaydi. Romanda bir qator mifologik obrazlar kuzatiladi. Izabelning qonidan paydo bo'lgan, "yonma yon turgan ko'za va guldon – like a chalice, with a bowl" (Updike J., 1996, 22) shaklidagi dog' ikki xususiyatga egadir. Birinchisi mazkur dog' muqaddas Graal obrazining paydo bo'lishiga xizmat qilsa, ikkinchisi esa qurbonlik talab qiluvchi muhabbat motiviga bog'liqligidan dalolat beradi. Izabelda erkakga xos bo'lgan ruh kuchini ko'ra olgan shamanning paydo bo'lishi romanda mazkur allyuziyani kuchaytirgan.

Shaman qizdagi ruh kuchini Mayra deb ataydi, ya'ni shaman mifologiyasiga ko'ra "u portugaliyaliklar uchun Iso hisoblanadi. – Maira is their name for a prophet like the Jesus of the Portuguese" (Updike J., 1996, 179). Izabel Tristianoni qullikdan ozod qilish maqsadida to'kis hayotidan, otasidan voz kechishga va o'zgarishga qaror qiladi.

Asarda ertakga xos bo'lgan xazina izlash motivi ham muhim hisoblanadi.

Konda ishlayotgan Tristianoning xayolini oilasi va onasi o'rnini bosgan oltin izlash fikri egallagan. Serra-do-Burakodagi hayot sevishganlar uchun sinovlarga boy bo'ldi. Tristiano og'ir jismoniy mehnatdan charchaydi, Izabel esa oilasini boqish uchun ishlashga majbur bo'ladi.

Topilgan bir bo'lak oltin ikkalasiga yaxshi hayotga bo'lgan umidni uyg'otadi, biroq folklor motivlariga binoan oltin ularga baxtsizlik olib keladi. Tristiano Izabelning otasidan yashirinish uchun sevgilisi bilan qochishga majbur bo'ladi. Yo'lida uchragan to'siqlardan o'tgan qahramonlarni bundanda og'ir World Literature (2024) 80 sinovlar kutadi. Ular yo'qotishni, og'ir jismoniy mehnat azoblariga bardosh bersalarda, o'lim arafasida turganda ham bir birlariga bo'lgan muhabbat kuchini his qiladilar.

Romandagi mifologik element Braziliyaning o'ziga xos tabiati va xalq e'tiqodlarini uyg'un holda tasvirlashga asoslanadi. Shahar sanoat peyzaji yovvoyi tabiatning shavqatsiz manzarasiga o'zgaradi.

Taraqqiyotdan, ijtimoiy va irqiy nizolardan uzoqlashgan qahramonlar ibtidoiy hayot tarziga qaytadilar, ammo shafqatsiz tabiat va yovvoyi hindular qarshisida ojiz qoladilar. Tupi qabilasidan bo'lgan Kupexaki kampir qahramonlarga ustozlik qiladi va ularga notanish jamiyatda omon qolish yo'llarini o'rgatadi.

Kampir obrazi Braziliya o'rmonlaridagi mo'jizani ifodalaydi. Yozuvchi A.Karpenter fikricha, mahalliy folklor afsonalariga ko'ra yovvoyi hayvonlar insonga aka-uka, opa-singil yoki keksalar ko'rinishida paydo bo'ladi va atrofdagilarni xavf-xatardan asraydi (Updike J., 1996, 76). Shaman Teyjukupapo obrazi asarga g'ayritabiiy elementni olib kiradi. Undagi sehr-jodu qilish bilimi Tristianoni qullikdan ozod qilish qobiliyatiga ega. Mahalliy jinoyat guruhi tomonidan qullikda saqlanayotgan Tristianoni, jinoyatchilar Izabelning muhabbat ramzini ifodalagan uzugi evaziga ozod qilish mumkinligini aytadilar.

Romandagi yana bir mifologik element ikki xil tafakkur orasidagi chegarani olib tashlash uchun o'tkaziladigan trubka chekish marosimi hisoblanadi. Shaman bilan yolg'iz qolgan Izabel notanish tilda so'zlash va tushunish qobiliyatiga ega. Ta'kidlash lozim-ki, shamanning kuchi mutlaq emas, uni sehr-jodusi tabiatga moslashish vositasini anglatadi: "Sehr-jodu narsalarni o'zgartirishi yoki aralashtirishi mumkin, ammo barchasi o'yin qoidalari doirasida sodir bo'ladi" – "Magic can merely transpose and substitute, as with the counters of a game" (Updike J., 1996, 183). Tristianoni qullikdan qutqarish uning qo'lidan keladi, u sevishtanlarning tana rangini o'zgartirishi kerak xolos.

Olti kun davomida Izabelning tanasiga jenipapo mevasidan tayyorlangan qora rangda sehrli naqshlar chiziladi. Ilmiy nuqtai nazardan qaraganda, tananing oq rangdan qora rangga o'zgarishi bo'yash natijasi deb hisoblash mumkin, shu vaqtning o'zida parallel ravishda Tristianoning oq tanliga o'zgarishi shamanning sehr-jodu qila olishining natijasiga yo'yish mumkin. Mazkur elementlar mistik realizm xususiyatlarini ifodalash bilan birga, muallifning adabiy an'analarga murojaat qilganligidan ham dalolat beradi.

Jon Apdayk personajlarining tashqi ko'rinishidagi o'zgarishlar bir tarafdin F.Kafka, A.Karpenter, A.Asturias metamorfozlarining syujetlarini aks ettirsa, ikkinchi tarafdin ikki xil Izolda motivining o'ziga xos zamonaviy xususiyatlarini ifodalaydi. Romanning syujet kompozitsiyasi tuzilishi xalqa shakliga o'xshaydi, shunga binoan asar shartli ravishda ikki qismga bo'lingan. Birinchi qism Tristiano va Izabelning tana rangining o'zgarishdan oldingi hayotini tasvirlaydi, ikkinchi qism esa tana rangi o'zgargandan keyingi hayotini hikoya qiladi.

Inisiasiya marosimlaridan World Literature (2024) 81 o'tgan qahramonlar yangi hayotga qadam qo'yishar ekan, yana bir bor o'tgan voqealarni boshdan o'tkazadilar va o'z yo'llarini teskari yo'nalishda takrorlaydilar. Bu esa asar boblarini nomlash tamoyilidan dalolat beradi. Jumladan, birinchi qism boblari "Kvartira", "San-Paulu", "Braziliya", "Matu-Grossu", "Yolg'iz va birga", "Lager" deb nomlansa, ikkinchi qism boblari "Yana lager", "Yana yolg'iz va birga", "Yana Matu-Grossu", "Yana Braziliya", "Yana San-Paulu", "Yana kvartira" deb nomlangan. Shu tariqa, ularning birgalikdagi hayot doirasi, tanishishgan kunda yakunlanadi. Tristiano vafot etgan paytda Izabel qachonlardir o'qigan sevgi qissasini eslaydi. Qissa "ayolning sevgilisiga bo'lgan muhabbati haqida edi. Ayol sevgilisi vafot etganda uning yonida qoladi va o'zi ham o'lim istab vafot etadi"

Mazkur parchada muallifning Tristan va Izolda afsonasiga murojaat etganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin, biroq adib qahramonlarini prototiplariga taqqoslamaydi. Izabel Tristianoning sovuq tanasini bo'salariga ko'mib tashlaydi.

Uning erining qo'llarida o'lish istagini amakisi "braziliya romantizmining qo'pol namoyishi" – "...vulgar display of Brazilian romanticism" sifatida qabul qiladi (Updike J., 1996, 254). Qahramon ruhiy azob-uqubatlarining eng yuqori nuqtasida yozuvchi Izabelning tanasida sodir bo'layotgan jarayonlar almashinuvini tasvirlashga o'tadi va qizning tirik qolishiga ishora qiladi.

Afsonadan farqli o'laroq, o'lim Izabelni chetlab o'tadi: "Yo'q, bugun hech qanday mo'jiza ro'y bermaydi. Ruh kuchli, ammo haqiqat undanda kuchli" – "There would be no miracle today. The spirit is strong, but blind matter is stronger" (Updike J., 1996, 254). Tabiat va aql-zakovatning sehrjodudan ustunligini namoyish etgan Jon Apdayk mistik elementni saqlagan holda hikoyani realizm yo'nalishida davom ettiradi. Qora tanli Izabel haqiqatni tan oladi va uning moviy ko'zlari o'z rangini o'zgartiradi. Shu tariqa, shamanning "ruhing qora bo'lganda, ko'zlar ham qorayadi" – "Eyes are the window of the spirit. When your soul becomes black, then will your eyes also" degan bashorati ro'yobga chiqadi (Updike J., 1996, 188).

Asar tahlilida biz Jon Apdaykning "Braziliya" romani mo'jizaviy realizm an'alariga to'liq mos kelishini kuzatishimiz mumkin. Romanda mifologik va realistik obrazlar sintezi mavjudligi, Tristan va Izolda haqidagi mifning qayta ishlanganligi, Braziliya koloritining o'ziga xosligining ifodasi, qahramonlarning hayot tarziga mos keladigan mo'jiza elementining kuzatilishi asarning mo'jizaviy realizm an'alarini aks ettirganligidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Chanady A. *Magical Realism and the Fantastic: Resolved Versus Unresolved Antinomy*. New York: Garland, 1985.
2. Geraldine Heng, *Empire of Magic: Medieval Romance and the Politics of Cultural Fantasy*, New York: Columbia UP, 2003, pp. 2–3.
3. *Magical Realism, Theory, History Community*, eds. Lois Parkinson, Zamora and Wendy B. Faris., Durham & London: Duke University Press, 1995. p.138
4. Mariano Siskind, 'The Genres of World Literature: The Case of Magical Realism', in Theo D'haen, David Damrosch and Djelal Kadir (eds.), *The Routledge Companion to World Literature* (London and New York: Routledge, 2012), pp. 345–55.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. A.Madvaliev tahriri ostida. (2006-2008 y). 365 b, 670 b.
6. Prosser J. *Updike, Race, and the Postcolonial Project* / J. Prosser // *Cambridge Companion to John Updike*. - Cambridge: Cambridge University Press, 2006. - 214 p.